SOFF.UZ BILAN ISHLASH YO’RIQNOMASI

Soff.uz — bu mutaxassislar, ijodkorlar, dasturchilar va o‘qituvchilar uchun o‘z intellektual mulklari, raqamli mahsulotlari hamda onlayn xizmatlarini sotish orqali daromad olish imkoniyatini beruvchi O‘zbekistondagi innovatsion platformadir. Sodda qilib aytganda, bu raqamli mahsulotlar va frilans xizmatlar uchun mo‘ljallangan milliy marketpleys hisoblanadi.

Bu yerda tayyor raqamli fayllarni (ilmiy ishlar, slaydlar, uslubiy qo‘llanmalar, dasturiy kodlar, dizayn andozalari, mobil ilovalar, 3D modellar) bir marta yuklab, uzoq muddat davomida **passiv daromad** olish yoki frilanser sifatida xizmat ko‘rsatish mumkin.

Platforma ikkita asosiy yo‘nalishda ishlaydi:

1. **Soff Seller** — tayyor raqamli mahsulotlarni sotish bo‘limi.
2. **Soff Freelancer** — buyurtma asosida masofadan xizmat ko‘rsatish bo‘limi.

Soff.uz platformasida ishlash bo‘yicha yo‘riqnoma

Platformada sotuvchi (muallif) sifatida faoliyat boshlash va mahsulot joylashtirish jarayoni quyidagi tizimli bosqichlardan iborat:

1-bosqich

Ro‘yxatdan o‘tish va profilni sozlash

- ✓ Saytga kirish uchun seller.soff.uz manziliga o‘tiladi.
- ✓ Hisob yaratish - telefon raqami yoki ijtimoiy tarmoqlar yordamida sotuvchi sifatida ro‘yxatdan o‘tiladi.
- ✓ Profilni to‘ldirish - shaxsiy ma’lumotlar, mutaxassislik yo‘nalishi va bog‘lanish uchun ma’lumotlar kiritiladi. Profil qanchalik mukammal va professional to‘ldirilsa, xaridorlarda ishonch shunchalik yuqori bo‘ladi.

2-bosqich

Mahsulot yuklash yoki xizmatni joylashtirish

- ✓ Bo‘limni tanlash: Shaxsiy kabinetdagi " xizmat yaratish" tugmasi bosiladi.
- ✓ Ma’lumotlarni kiritib qisqa va tushunarli nom beriladi.

- ✓ Batafsil tavsif ya’ni ma’lumot nima haqida, kimlar uchun mo‘ljallangan va qanday muammoni hal qilishi yoziladi.
- ✓ Qidiruv tizimlarida oson topilishi uchun tegishli kalit so‘zlar tanlanadi.
- ✓ Sotiladigan asosiy raqamli fayl (arxiv, PDF, kod yoki hujjat) tizimga yuklanadi. Shuningdek, xaridor ko‘rishi uchun mahsulotning tashqi ko‘rinishi (muqovasi, skrinshotlari yoki namuna fayli) joylashtiriladi.
- ✓ Mahsulotning qiymatiga mos ravishda sotilish narxi belgilanadi.

3-bosqich

Moderator nazorati

✓ Yuklangan har bir mahsulot yoki xizmat platforma administratorlari (moderatorlar) tomonidan tekshiriladi.

✓ Tekshiruv davomida mahsulotning sifati, intellektual mulk qoidalariga mosligi va tavsifning to‘g‘riligi ko‘rib chiqiladi.

✓ Moderatsiyadan muvaffaqiyatli o‘tgan mahsulotlar avtomatik ravishda Soff.uz umumiy katalogida guruhlangan holda ommaga taqdim etiladi.

4-bosqich

Sotuvlar va to‘lovlarni xavfsiz qabul qilish

- ✓ Xaridorlar platformaning ichki to‘lov tizimlari orqali mahsulotni sotib olganlarida, mablag‘ avtomatik ravishda sotuvchining shaxsiy balansida jamlanadi.
- ✓ Platforma har bir tranzaksiyaning xavfsizligini va to‘lov kafolatini o‘z zimmasiga oladi.
- ✓ Yig‘ilgan mablag‘larni foydalanuvchi o‘zining bank plastik kartalariga qulay va tez fursatda yechib olishi mumkin. Tizimni mobil qurilmalarda boshqarish uchun maxsus **Soff Seller** ilovasi ham mavjud.

Soff.uz platformasi o’quvchilar va yosh mutaxassislarni frilansing faoliyatiga yo‘naltirish, shuningdek, tayyorlagan o‘quv-uslubiy materiallarni raqamli bozorga olib chiqish uchun juda qulay muhit hisoblanadi.